

**RAQAMLI BANKLAR: AN'ANAVIY BANK TIZIMINING YANGI
RAQOBATCHISIMI YOKI HAMKORI?**

Namozov Bekjon Bo'ron o'g'li

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

Magistranti, O'zbekiston

bekjon0522@gmail.com

Abduxalimova Marjona Xikmatovna

Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Iqtisodiyot va Boshqaruv fakulteti

3-bosqich talabasi, O'zbekiston

marjonaxikmatovna@gmail.com

**DIGITAL BANKS: COMPETITORS OR PARTNERS TO THE TRADITIONAL
BANKING SYSTEM?**

Namozov Bekjon Buron ugli

Master's student at the University of World

Economy and Diplomacy, Uzbekistan

bekjon0522@gmail.com

Abdukhalimova Marjona Xikmatovna

3rd year student of the Faculty of

Economics and Management

Karshi State Technical University, Uzbekistan

marjonaxikmatovna@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli banklarning an'anaviy bank tizimiga ta'siri tahlil qilinadi hamda ularning raqobatchi yoki hamkor sifatidagi o'rnini yoritiladi. Raqamli banklarning tezkorlik, qulaylik va xarajatlarni kamaytirish kabi asosiy afzalliklari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, an'anaviy banklarning texnologik o'zgarishlarga moslashish jarayonidagi muammolari va imkoniyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli banklar an'anaviy banklarni to'liq siqib chiqarmaydi, balki ular bilan hamkorlikda moliya tizimining samaradorligi va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Abstract

This article examines the impact of digital banks on the traditional banking system, focusing on whether they act as competitors or partners. It highlights the main features and advantages of digital banking, including speed, convenience, and cost efficiency, as well as the challenges faced by traditional banks in adapting to technological change. The study also explores the growing competition driven by customer preferences, particularly among younger users, and emphasizes the role of collaboration between fintech companies and traditional financial institutions. The findings suggest that rather than completely replacing traditional banks, digital banks contribute

to the modernization and increased efficiency of the banking sector through integration and innovation.

Kalit so'zlar: Raqamli banklar, an'anaviy bank tizimi, raqamli iqtisodiyot, fintex, bank xizmatlari, bank tizimi transformatsiyasi, O'zbekiston bank tizimi, raqamli texnologiyalar, moliyaviy innovatsiyalar.

Keywords: Digital banks, traditional banking system, digital economy, fintech, banking services, banking system transformation, banking sector in Uzbekistan, digital technologies, financial innovations.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi deyarli barcha sohalar qatori bank tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, moliyaviy texnologiyalar (fintex) asosida shakllanayotgan raqamli banklar an'anaviy bank xizmatlarini tubdan o'zgartirib, yangi xizmat ko'rsatish modelini yuzaga keltirmoqda. Bu jarayon bank xizmatlarining tezkorligi, qulayligi va ochiqligini oshirish bilan birga, mijozlarning talab va ehtiyojlarini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. An'anaviy bank tizimi uzoq yillar davomida barqaror va ishonchli moliyaviy institut sifatida shakllangan bo'lsa-da, raqamli banklarning kirib kelishi ushbu tizim oldiga yangi vazifalar va chaqiriqlarni qo'yimoqda. Endilikda banklar nafaqat moliyaviy xizmat ko'rsatish, balki innovatsion yechimlarni joriy etish orqali mijozlarni jalb qilish va ushlab qolish uchun ham raqobatlashmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqamli banklarning an'anaviy bank tizimiga ta'sirini o'rganish, ularning o'zaro munosabatini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — raqamli banklar va an'anaviy banklar o'rtasidagi raqobat va hamkorlik jihatlarini yoritish hamda ularning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

An'anaviy bank tizimi bank xizmatlarining eng dastlabki va uzoq yillar davomida asosiy shakli bo'lib kelgan. Uning shakllanishi XVII asr oxirlariga, xususan 1694-yilda Angliya bankining tashkil etilishiga borib taqaladi. Keyingi asrlarda bu tizim filiallar orqali xizmat ko'rsatish, mijoz bilan bevosita muloqot qilish va hujjat asosidagi operatsiyalarni amalga oshirishga asoslangan holda rivojlandi. XX asr davomida an'anaviy banklar moliya tizimining asosiy tayanchi sifatida barqaror faoliyat yuritib keldi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida texnologik taraqqiyot bank tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. 1990-yillardan boshlab internet banking xizmatlari paydo bo'ldi, 2000-yillardan esa mobil banking keng joriy etila boshlandi. Bu jarayon bank xizmatlarini raqamlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida baholanadi.

Raqamli banklar esa ayniqsa 2010-yillardan boshlab jadal rivojlana boshladi. 2015–2020-yillar oralig'ida fintech asosidagi to'liq raqamli banklar shakllanib, an'anaviy banklarga muqobil xizmat ko'rsatuvchi yangi model sifatida maydonga chiqdi. Ular asosan mobil ilovalar va internet platformalar orqali xizmat ko'rsatib, jismoniy filiallar sonini minimallashtirish yoki butunlay yo'q qilish tamoyiliga asoslanadi [1].

Raqamli banklarning asosiy ustunliklari sifatida tezkor xizmat ko'rsatish, 24/7 rejimda ishlash, operatsion xarajatlarning pastligi va mijozlarga moslashtirilgan xizmatlar taklif etish imkoniyati ko'rsatiladi. Ayniqsa, 2020-yildan keyin pandemiya sharoiti tufayli raqamli bank xizmatlariga bo'lgan talab keskin oshdi va bu jarayon raqamli transformatsiyani yanada tezlashtirdi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil PF-5975-sonli "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida mamlakatda raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish, jumladan moliya va bank tizimini raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu farmonga ko'ra, bank xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish, masofaviy bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali moliyaviy operatsiyalar samaradorligini oshirish vazifalari belgilangan. Farmon raqamli banklar rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratib, an'anaviy bank tizimining bosqichma-bosqich raqamli transformatsiyasini jadallashtirishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi [3].

O'zbekistonda ham 2020-yildan boshlab raqamli banklashuv jarayoni jadal rivojlana boshladi. Raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, mobil to'lov tizimlari va onlayn bank xizmatlarining keng joriy etilishi bank sektorining raqamli shaklga o'tishiga turtki berdi [4].

O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayoni so'nggi yillarda jadal rivojlanib bormoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlarda raqamli bank xizmatlarining an'anaviy bank tizimiga ta'siri, raqobat muhiti hamda ularning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari keng o'rganilgan.

O'rganilgan tadqiqotlarda O'zbekiston banklari misolida raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi an'anaviy banklar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi. Xususan, raqamli texnologiyalar bank operatsiyalarini soddalashtirishi, mijozlarga xizmat ko'rsatish tezligini oshirishi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi asoslab berilgan. Bu esa bank tizimida raqamli transformatsiyaning muhim bosqichini tashkil etadi [5]. Shuningdek, raqamli banklar va an'anaviy banklar o'rtasidagi raqobat masalasiga bag'ishlangan ishlarda ushbu ikki model o'rtasidagi munosabat faqat raqobat bilan cheklanib qolmay, balki o'zaro hamkorlik va integratsiya shaklida ham rivojlanib borayotgani qayd etiladi. Bu jarayon O'zbekiston bank tizimining kelajakdagi barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va uning an'anaviy banklarga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bank sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sifatini oshirish bilan birga, an'anaviy banklarni ham o'z faoliyatini modernizatsiya qilishga undamoqda. Natijada bank tizimida raqobat kuchayib, innovatsion yondashuvlar kengayib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy banklar uzoq yillar davomida ishonchlilik, barqarorlik va keng infratuzilma bilan ajralib kelgan bo'lsa, raqamli banklar tezkorlik, qulaylik va innovatsion yondashuv bilan ustunlikka ega. Shu sababli ular o'rtasidagi munosabatni faqat raqobat sifatida emas, balki o'zaro ta'sir va hamkorlik jarayoni sifatida ham baholash mumkin [7].

Tahlillar yakuniga ko'ra shuni ta'kidlash mumkinki, raqamli banklar an'anaviy bank tizimi uchun faqat raqobatchi emas, balki uni rivojlantiruvchi va modernizatsiya qilishga undovchi hamkor sifatida ham maydonga chiqmoqda. Kelajakda ushbu ikki modelning uyg'unlashuvi bank tizimining eng samarali rivojlanish yo'nalishi bo'lib qolishi kutilmoqda.

Tahlil va natijalar

Raqamli banklar va an'anaviy bank tizimi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, moliya sektorida chuqur transformatsiya jarayoni kechmoqda. An'anaviy banklar uzoq yillar davomida mijozlarga filiallar orqali xizmat ko'rsatib kelgan bo'lsa, raqamli banklar

bu modelni tubdan o'zgartirib, xizmatlarni to'liq masofaviy shaklga o'tkazmoqda. Bu esa bank operatsiyalarining tezligi va qulayligini sezilarli darajada oshirgan.

Tahlillar natijasida raqamli banklarning asosiy afzalliklari sifatida quyidagilar aniqlanadi: operatsiyalarni real vaqt rejimida bajarish imkoniyati, 24/7 xizmat ko'rsatish, mijoz uchun vaqt va xarajatlarni tejash hamda avtomatlashtirilgan tizimlar orqali inson omilini kamaytirish. Bu omillar ayniqsa yosh mijozlar va tezkor moliyaviy xizmatlarga ehtiyoji yuqori bo'lgan foydalanuvchilar uchun katta qulaylik yaratmoqda.

O'zbekistonda raqamli bank tizimining rivojlanishi so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bank sektorida raqamli transformatsiya jarayoni bosqichma-bosqich kuchayib bormoqda va bu jarayon bevosita an'anaviy bank tizimining modernizatsiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining rivojlanish istiqbollari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmatlar sifatini oshirish, operatsion jarayonlarni tezlashtirish va mijozlarga qulay sharoit yaratishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Bu esa bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishga olib kelmoqda [8]. Raqamli bank xizmatlarining an'anaviy bank tizimiga ta'siri bo'yicha O'zbekiston banklari misolida o'tkazilgan tadqiqotlarda raqamli xizmatlar bank operatsiyalarini soddalashtirgani, mijozlar bilan ishlash samaradorligini oshirgani va xizmatlar ko'lamini kengaytirgani qayd etiladi. Bu jarayon an'anaviy banklarni ham raqamli texnologiyalarni joriy etishga majbur qilmoqda.

Shuningdek, raqamli banklar va an'anaviy banklar o'rtasidagi raqobat masalasi O'zbekiston bank tizimi misolida tahlil qilinganda, ushbu ikki tizim o'rtasidagi munosabat faqat raqobat emas, balki hamkorlik va integratsiya shaklida ham rivojlanib borayotgani aniqlanadi. Bu esa kelajakda bank tizimining yanada samarali shaklga o'tishini ta'minlaydi.


Shu bilan birga, an'anaviy bank tizimi ham o'zining muhim afzalliklarini saqlab qolmoqda. Jumladan, yuqori darajadagi ishonchlik, davlat tomonidan qat'iy tartibga solinishi va keng infratuzilma tizimi uning barqarorligini ta'minlaydi. Ko'plab mijozlar hanuzgacha yirik moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda an'anaviy banklarga ishonch bildirmoqda.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli banklar an'anaviy banklarni to'liq siqib chiqarmagan, aksincha ularni o'z xizmatlarini modernizatsiya qilishga majbur qilgan. Bugungi kunda an'anaviy banklar ham mobil ilovalar, internet banking va raqamli to'lov tizimlarini keng joriy etmoqda. Bu esa bank sektorida raqobat bilan birga texnologik yangilanish jarayonini tezlashtirmoqda.

Tahlil natijalari yana shuni ko'rsatadiki, raqamli banklar va an'anaviy banklar o'rtasidagi munosabat asta-sekin raqobatdan hamkorlik va integratsiya tomon o'zgarimoqda. Ko'plab banklar fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilib, innovatsion xizmatlarni joriy etmoqda. Bu jarayon mijozlarga yanada keng va sifatli bank xizmatlarini taqdim etish imkonini bermoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli banklar an'anaviy bank tizimi uchun faqat raqobatchi emas, balki uni rivojlantiruvchi va transformatsiya qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Kelajakda ushbu ikki tizimning uyg'unlashuvi bank sektorining eng samarali va barqaror rivojlanish modeli sifatida shakllanishi kutilmoqda.

Raqamli bank xizmatlari rivojlanish dinamikasi (O'zbekiston, 2018-2023)



1-rasm. O'zbekistonda raqamli bank xizmatlari rivojlanish dinamikasi (2018–2023) [9]

Xulosa

Raqamli banklar zamonaviy bank tizimining yangi va tez rivojlanayotgan yo'nalishi bo'lib, ular an'anaviy banklarga nisbatan tezkorlik va qulaylik jihatidan ustunlikka ega. Shu bilan birga, an'anaviy banklar ishonchlilik va barqarorlikni saqlab qolmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli banklar an'anaviy banklarni to'liq almashtirmaydi, balki ularni rivojlantirib, bank tizimining raqamlashtirilishiga turtki beradi. Kelajakda ushbu ikki tizimning uyg'unlashuvi eng samarali model bo'lishi kutilmoqda. Bu esa mijozlarga yanada tez, qulay va xavfsiz moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bank sektorida raqobat kuchayib, xizmatlar sifati yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pardayeva D. M. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari // *The Multidisciplinary Journal of Science and Technology*. – 2023. – Vol. 5, Issue 6. – B. 1136–1139
2. Raxmonov I. X., Primova M. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va uning an'anaviy banklarga ta'siri // *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali*. – 2025. – Vol. 4, Issue 5.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil PF-5975-son Farmoni. "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2020.
4. Abdullaev Y., Rustamov D. Raqamli bank xizmatlarining O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2021. – №4(22). – B. 45–52.
5. Qosimova Sh. K. Raqamli bank xizmatlarining an'anaviy bank tizimiga ta'siri: O'zbekiston banklari misolida.
6. Durumboyev P. Raqamli banklar va an'anaviy banklar raqobati: O'zbekiston bank tizimining kelajagi // *Ilm fan xabarnomasi*. – 2024. – №9. – B. 364–367.
7. Avezov M. K. Raqamli bank xizmatlari va uning afzalliklari // *Scientific Progress*. – 2022. – Vol. 3, Issue 2. – B. 808–810.

8. Isaev A. J. Raqamli iqtisodiyot sharoitida pul shakllarining o'zgarishi // *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari*. – 2024. – B. 316–319.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Bank tizimi statistik ma'lumotlari (2018–2023 yillar)*. – Toshkent, 2024.

